

## 121. Ikki amalli ifodalar

**Yondosh mavzu:**  
bizning o'лка – gullab  
yashnagan bog'.


Amallar tartibi.



1. O'quvchilar maktab bog'iga 4 gulpushti lola, lolalardan 6 marta ko'p nargis, nargislardan 3 marta kam sumbul ekdilar. O'quvchilar necha gulpushti sumbul ekdilar?



2. Agar bog'da hammasi bo'lib 100 ta daraxt bo'lsa, bog'dagi daraxtlar haqida masala tuzing.



Ushbu ifodalar nimani anglatishi mumkin?

$$50 : 10$$

$$100 - 50 - 10$$

$$100 : 50$$

$$50 + 10$$



3. Misollarni namuna bo'yicha yeching.

Namuna:  $6 \cdot 3 : 9 = 18 : 9 = 2$

18

$$3 \cdot 4 : 2$$

$$5 \cdot 4 : 10$$

$$21 : 3 \cdot 2$$

$$25 : 5 \cdot 7$$



4. Masalalarga doir ifodalar tuzing.

- a) Istirohat bog'ida  $a$  ta ignabargli daraxtlar, ulardan 2 marta ko'p yaproqli daraxtlar bor. Bog'da hammasi bo'lib nechta daraxt bor?
- b) Istirohat bog'ida  $b$  ta ignabargli daraxtlar, ulardan 2 marta ko'p yaproqli daraxtlar bor. Bog'da hammasi bo'lib nechta daraxt bor?
- d) Bog'da  $m$  ta daraxt, daraxtlardan 2 marta ko'p butalar, butalardan  $d$  dona ko'p gulpushtiga ekilgan gullar bor. Bog'da nechta gul bor?



5. Sxema bo'yicha masala o'ylab toping. Uni yeching. Shaharni ko'kalamzorlashtirish uchun gullar keltirildi.

284 ta gul

Atirgullar	Qo'qongullar	Pionlar	Gerberlar
75 ta gul	64 ta gul	81 ta gul	?



6. Jadval bo'yicha masalalar o'ylab toping. Ularga doir ifodalar yozing, ularning qiymatlarini toping.

	Maysazorlar	Bir maysazordagi gulpushtilar	Jami gulpushtilar
	4	6	?
	?	7	42
	8	?	32



7. Hisoblang.

$$4 \cdot 2 \cdot 3$$

$$5 \cdot 2 \cdot 7$$

$$3 \cdot 3 \cdot 3$$

$$8 : 4 \cdot 9$$

$$4 \cdot 3 : 6$$

$$10 : 2 \cdot 8$$